

# “Ўзкимёсаноат” АЖ Очиқлик индекси - 2024 рейтингида “яшил” кўрсаткични қайд этди

// 25 aprel 2025 йил

<https://pda.uzkymyosanoat.uz/uz/press/news/uzkymyosanoat-azh-ochiqlik-indeksi-2024-reytingida-yashil-ku>

DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARIDA OCHIQLIK BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN  
ISHLARNING SAMARADORLIGI VA NATIJADORLIGINI BAHOLASHGA QARATILGAN  
**OCHIQLIK INDEKSI-2024**



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
KORRUPSIYAGA QARŞI  
KURASHİSH AGENTLİĞİ

## AKSIYADORLIK JAMIYATLARI



Коррупцияга қарши курашиб агентлиги томонидан давлат идоралари ўртасида 2024-йил учун очиқлик индекси натижалари эълон қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-154-сон Фармонига мувофиқ, 2024-йил якунларига кўра давлат органлари ва ташкилотларида очиқлик бўйича амалга оширилган ишларнинг самарадорлиги ва натижадорлигини баҳолашга қаратилган Очиқлик индекси асосида тўпланган барча кўрсаткичлар эълон қилинди.

Маълумот ўрнида: Индекс 84 та баҳолаш мезонидан таркиб топган 8 та индикатор асосида шакллантирилиб келинмоқда. Бу йилги баҳолашда жами 98 та та республика ижро этувчи ҳокимият органлари – вазирлик, қўмита, агентлик, инспекциялар ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари фаолияти қамраб олинди.

Баҳолаш натижаларига кўра, 50 та давлат органи “яшил” (2023-йилда 31 та), 35 таси “сарик” (43 та) ва 13 таси “қизил” (29 та) самарадорлик кўрсаткичларини қайд этди.

Индекс натижаларига кўра, “Ўзкимёсаноат” АЖ 73,7 балл билан “яшил” кўрсаткични қайд этди.

### **“Ўзкимёсаноат” АЖ Матбуот хизмати**